



## ISLOHOTLAR SAMARASI

RAQAMLI DAVLAT XIZMATI  
davlat xizmatchilarini xalqqa  
yanada yaqinlashtiradi

Davlat fuqarolik xizmati sohasiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ularni izchil takomillashtirib borish, davlat fuqarolik xizmatchilari shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlagan holda ular to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Raqamli davlat xizmati joriy etilishi har tomonlama manfaatli bo'lishi, ayniqsa, korrupsiyaning oldini olishi, turli ovoragarchilik va qog'ozbozliklarga barham berishi lozim. Shunga muvofiq, o'tgan davr mobaynida agentlik tomonidan keng qamrovli "Davlat fuqarolik xizmati yagona elektron axborot-tahlil tizimi" dasturiy-apparat kompleksini joriy etish ishlari olib borildi.

2020-yilda ishga tushirilgan mazkur dasturiy-apparat kompleksi 20 dan ortiq vazirlik va idora bilan hamkorlikda yaratildi. Chunki dasturiy-apparat kompleksidagi quyi tizimlar vazirlik va idoralar tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar bazasiga bog'liqdir.

Elektron  
Hukumat

O'tgan vaqt davomida olib borilgan sa'y-harakatlar natijasida dasturiy-apparat kompleksining quyi tizimlaridan aksariyati ishlab chiqilib, sinovdan o'tkazildi. Xususan, davlat fuqarolik xizmatidagi vakant lavozimlarga

munosib nomzodlarni ishga qabul qilish maqsadida Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali — vacancy.argos.uz ishga tushirildi.

Davomi 2-betda

2023  
9-IYUL  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida O'zbekiston Ekologik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqola chop etilmoqda. Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga Saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.



## BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON ERONNING TASHQI SIYOSATIDA  
USTUVOR O'RIN EGALLASHI KERAK

O'zbekiston o'tayotgan haftada Eron axborot makonining diqqat markazida bo'ldi. Xususan, Eron bosma va elektron resurslarida mamlakatimizning zamonaviy taraqqiyoti, unda kechayotgan jarayon va voqealarga bag'ishlangan turkum maqolalar e'lon qilindi.

Davomi 2-betda



## INSON QADRI UCHUN



Sur keldi,

## EL QAYTDI

Qoraqalpog'istonning chekka hududlaridan bo'lgan Taxtako'pir tumani Nukus shahridan 100 kilometr uzoqda joylashgan. Tuman aholisi, xususan, qo'shni Qozog'iston bilan chegaradosh Beltov va Borshitov ahli azaldan chorvachilik hamda dehqonchilik bilan shug'ullanib kelishgan. Iqlim o'zgarishi, tabiat nomuvofligi, suvsizlik natijasida shu ish ham katta muammoga aylandi. Natijada ovul ahli boshqa manzillarga ko'chib ketish harakatiga tushdi. Vaholanki, bir paytlar Beltovda 400 dan ortiq oila yashardi. Bugun ular soni 166 ta. Og'ir turmush sharoiti odamlarni shunga majbur qilgan edi.

Davomi 4-betda



## QADRIYATLAR

TADBIRKORNING  
TOPGANIDA BARAKA  
BO'LADI

Non dasturxon ko'rki, insoniyat ijod qilgan shohona ne'mat. Bu dunyoda nondan aziz ne'matning o'zi yo'q. Ayniqsa, tandirdan chiqqan issiqqina nonning xushbo'y hidi yon-atrofga ajib bir tarovat, ifor taratganida, kishi beixtiyor beg'ubor bolaligini, onasi yopgan kulcha nonning dimog'ida qolgan hidini sog'inib, entikib eslaydi.

Davomi 5-betda



## MILLAT FIDOYLARI

Erkin Vohidov —  
QALAMI BILAN QALBI  
UYG'UN IJODKOR

Zabardast tog'larning zalvori-yu, baxmal kengliklarning shavqi beixtiyor sarmast qiladi ko'ngilni. Toshdan toshga urilgan billur tomchilardan bahra olib, kamalakrang giyohlar iforidan diling yayraydi. Katta yo'lining ikki tomoniga yoyilgan dalalar adirlarga tutashgan. Hafsala bilan terilgan qovun-tarvuzga ko'zim tushib, mashinani yo'l chetiga to'xtatdim. Boshiga durra yopgan dehqon amaki menga peshvoz chiqdi.

Davomi 6-betda



## TURIZM

YANGI SAYYOHLIK MANZILLARI  
barcha uchun koni foyda

Dunyoda turizm sohasi iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan va istiqbolli sohalaridan biriga aylanib bormoqda. U ko'plab mamlakatlarda yuqori daromadli, iqtisodiy o'sishning yetakchi kuchi sifatida xizmat qilmoqda. Salmqli sayyohlik resurslariga ega O'zbekiston ham mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda ana shunday ulkan kuchga ega bo'lishi mumkin. Shu bois, mazkur sohaning modernizatsiyalashuvi juda zarur. Toki u milliy iqtisodiyotda yangi ish o'rinarini ko'paytirish, xorijiy valyuta tushumini oshirish, xalqimizning ma'naviy-madaniy merosini asrab-avaylash va tabiiy resurslaridan samarali foydalanishni ta'minlasin.

Davomi 5-betda



## BIZ VA DUNYO

O'ZBEKISTON ERONNING TASHQI SIYOSATIDA  
USTUVOR O'RIN EGALLASHI KERAK

Boshlanishi 1-betda

Xususan, Eronning "Sharq" strategik tadqiqotlar markazi veb-saytinin maxsus bo'limida "O'zbekiston va Eron o'rtasidagi strategik savdo-iqtisodiy hamkorlikni harakatlantiruvchi omillar va istiqbol" sarlavhali tahliliy maqola e'lon qilindi.

"Sharq" strategik tadqiqotlar markazi tadqiqotchisi Omid Rahimiy qalamiga mansub ushbu maqolada yozishilicha, so'nggi yillarda rasmiy Tehron va Toshkent o'rtasidagi aloqalar izchil rivojlanmoqda.

"2017-yildan buyon O'zbekiston muayyan taraqqiyot va islohotlar yo'lini bosib o'tdi, — deyiladi maqolada. — Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu davlat Markaziy Osiyo va sobiq ittifoq hududida siyosat hamda iqtisodiyot sohasidagi muhim mintaqaviy qutblardan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston bilan hamkorlikni rivojlantirish qo'sh-nichilik siyosatining va albatta, Eron Islom Respublikasining Yevrosiyo strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanishi mumkin".

Maqolada O'zbekistondagi joriy savdo-iqtisodiy vaziyat, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarga haqidagi muhim ma'lumotlar ham o'quvchilarga e'tiboriga havola qilingan.

Ta'kidlanganidek, mazkur ko'rsatkichlar iqtisodiyot rivoji, O'zbekistonning mintaqaviy va xalqaro savdodagi o'rni ortib borayotgani, ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy kooperatsiya to'g'risidagi statistik ma'lumotlar o'tgan yillardagi hamkorlikning o'sish tendensiyasidan dalolat beradi.

"O'zbekiston ham G'arbiy Osiyo davlatlari kabi Eronning tashqi siyosatida ustuvor o'rin egallashi kerak", deb yozadi muallif o'z xulosasida.

"Iran News" gazetasida "Yangi O'zbekistonning ochiq, pragmatik va tinchliksevar tashqi siyosati asoslari" sarlavhali maqola chop etildi.


Unda O'zbekiston dunyoning 142 ta davlati bilan diplomatik aloqalar o'rnatgani, BMT, IHT, YXHT, SHHT, MDH va boshqa yuzdan ortiq nufuzli tashkilotga a'zolari, shuningdek, 200 ta xalqaro ko'p tomonlama shartnoma ishtirokchisi ekani qayd etilgan.

"Mamlakat nafaqat mintaqaviy, balki global dunyo tartibini shakllantirish, jahon hamjamiyatining xavfsizligi, farovonligi va barqaror rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan chaqiriq va tahdidlarga qarshi kurashishning jamoaviy mexanizmlarini yaratishda juda faol", deyiladi maqolada.

Nashrdan respublika rahbarining xalqaro tadbirlardagi muhim tashabbuslari qayd etilgan. O'zbekiston o'z tarixida ilk bor BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylangani, ayni paytda Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha faol muloqot olib borayotgani ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekistonning Afg'onistonda tinchlik o'rnatishga qaratilgan siyosatiga alohida e'tibor qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, 2021-yil 15-16-iyul kunlari O'zbekistonda "Markaziy va Janubiy Osiyo: mintaqaviy o'zaro bog'liqlik. Tahdidlar va imkoniyatlar" mavzusida yuqori darajadagi xalqaro konferensiya o'tkazilgani urg'ulangan.

O'zbekistonning iqtisodiy va sarmoyaviy salohiyatiga bag'ishlangan navbatdagi tahliliy maqola ushbu mamlakatning yetakchi bosma nashrlarida biri — "Sobh-Eqtasad" gazetasida sahifalarida bosildi. Maqolada O'zbekistonning sarmoyaviy jozibadorligi,



mavjud imtiyoz va preferensiyalar, mamlakatimiz salohiyati, investorlar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar haqidagi muhim ma'lumotlar qalamga olingan.

Bularning barchasi O'zbekistonda keyingi yillarda iqtisodiy sohada olib borilgan keng ko'lami islohotlar tufayli amalga oshirildi, deyiladi maqolada.

Ta'kidlanganidek, mamlakat mintaqaning iqtisodiyoti ochiq il'or davlatlaridan biriga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni liberalashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish davom etmoqda, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, bu sohalarida qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlar mustahkamlanmoqda.

"Xorijiy investorlarning aksiyalar bo'yicha dividendlar ko'rinishidagi daromadlari uch yil muddatga daromad solig'idan ozod qilindi. Soliq va bojxona qonunchiligiga yangi yoki yanada qattiqroq javobgarlik choralarini kiritishni qat'iy taqiqlash belgilandi", deya qayd etadi "Sobh-Eqtasad".

Shuningdek, maqolada investorlar uchun xomashyo va 7 mingdan ortiq nomdagi tovarlar uchun bojxona to'lovlari bekor qilingani xabar qilingan. "Bojxona hududida qayta ishlashning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Yangi bozorlarni o'zlashtirish maqsadida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish bo'yicha ishlar jadallashtirilmoqda. Ijro hokimiyati tizimi isloh qilinmoqda, byurokratiya qisqarmoqda. Davlatning tadbirkorlikni tartibga solish bo'yicha 500 ta funksiyasi bekor qilindi", deb ta'kidlanadi manbada.

Yana 70 ta funktsiya davlat-xususiy sheriklik va autorsing orqali xususiy sektorga o'tkazildi. Bugungi kunga qadar 132 ta litsenziya va ruxsat beruvchi hujjatlar bekor qilingan, 33 tasi bildirishnoma shakliga o'tkazilgan.

"Eng muhimi, investorlar bilan ishlashning to'liq tizimi joriy qilingan. Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan barcha bosqichlarda — loyihani boshlashdan to'g'ri darcha" tamoyili bo'yicha ishga tushirishgacha

bo'lgan bosqichlarda investorlarga yordam berish tizimi yo'lga qo'yilgan, — deyiladi maqolada. — O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasiga ko'ra, birinchi marta davlat qulay sarmoyaviy va ishbilanmonlik muhitini, mulk daxsizligini va sud hokimiyati mustaqilligini uchun shart-sharoit yaratish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan".

Eronning yana bir nufuzli bosma nashri — "Asia News" gazetasida O'zbekistonning sayyohlik salohiyatiga bag'ishlangan maqolani chop etdi.

Unda O'zbekiston qadimdan Buyuk ipak yo'li markazida bo'lib kelgani, buyuk tarixiy, madaniy va me'moriy merosga ega ekani qayd etilgan.

"Mamlakatda yetti mingdan ortiq qadimiy yodgorlik mavjud bo'lib, ular tarixiy-madaniy, me'moriy va arxeologik jihatdan katta ahamiyatga ega. O'zbekiston buyuk ma'rifatparvar olimlar — Ibn Sino, Beruniy, Al-Xorazmiy, Mirzo Ulug'bek va boshqa buyuk shaxslar vatani bo'lib, ular jahon madaniyati hamda ilm-fani tamadduniga katta hissa qo'shgan", deyiladi maqolada.

Nashrdan yozilishicha, O'zbekistonning tog' va cho'llari manzarasi dunyoning turli burchaklaridan kelgan sayyohlar e'tibori va hayratiga sabab bo'lmoqda. Shu bois, mamlakatning sayyohlik salohiyatini ortiqcha baholash shart emas va hukumat uni rivojlantirish uchun katta sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

2016-yildan O'zbekistonda turizm sohasini tubdan isloh qilish jarayoni boshlandi. 65 davlatdan tashrif buyuruvchilar uchun 30 kunlik vizasiz tizim joriy etildi va 77 davlat, jumladan, Eron fuqarolari uchun elektron viza berish tizimi soddalashtirildi. Islohotlar sharofati bilan 2022-yilda O'zbekistonga 5,2 million sayyoh tashrif buyurgan

bo'lsa, joriy yilda 7 million sayyoh jalb etilishi rejalashtirilgan.

Maqolada yozilganidek, joriy yilda Samarqand shahrida Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi o'tkazildi.

"2022-yil sentabr oyida Shanxay hamkorlik tashkilotiga (SHHT) a'zo mamlakatlar Davlat rahbarlari kengashi sammiti bo'lib o'tgan Samarqand shahrida "Silk Road Samarkand" sayyohlik markazi barpo etildi, — deya qayd etadi gazeta. — Markaz 260 gektardan ortiq maydonida qurilgan bo'lib, eshakk eshish kanalining ikki tomonida joylashgan. Bu yerda qariyb 1,2 ming xonaga ega sakkizta mehmonxona, jumladan, mamlakatdagi ilk ikkita besh yulduzli mehmonxona, "Boqiy shahar" karvonsaroyi va Kongress-xoll barpo etildi. Kongress markazining 18 ming kvadrat metr maydonida sig'imi 3,5 ming kishigacha bo'lgan o'n uchta konferensiya zali joylashgan".

"Shuningdek, Qashqadaryoning Shahrisabz shahri Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 2024-yildagi turistik poytaxti deb e'lon qilingan. Qaror 2022-yil 13-dekabrda ITH davlatlari turizm vazirlarining onlayn tarzda o'tkazilgan to'rtinchi yig'ilishi yakunlari bo'yicha qabul qilindi", deb yozadi "Asia News".

Umuman olganda, Eron OAV tomonidan e'lon qilingan ko'plab maqolalar shu mamlakatda O'zbekistonga nisbatan qiziqish ortib borayotganidan, rasmiy Tehron va Toshkent o'rtasida ko'p qirrali hamda o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi istiqbol va imkoniyatlar ochayotgan tub o'zgarishlardan dalolat beradi.

"Dunyo" AA  
Tehron shahri

## ISLOHOTLAR SAMARASI

Ihrom QURBONOV,  
Davlat xizmatini rivojlantirish  
agentligi departament mudiri

Boshlanishi 1-betda

Mazkur portal davlat organlari va tashkilotlaridagi vakant lavozimlarni egallash uchun nomzodlarning ochiq mustaqil tanlovi tashkil etadigan elektron tizim bo'lib, internet tarmog'ida "bir darcha" tamoyili asosida faoliyat ko'rsatadi. Portal O'zbekistonning barcha fuqarolariga vakant lavozimlarga elektron tarzda hujjat topshirish imkonini beradi hamda davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda inson omilini minimal darajada kamaytiradi.

Shuningdek, dasturiy-apparat kompleksining sinov tariqasida ishga tushirilgan quyidagi tizimlardan biri davlat fuqarolik xizmatchilari bilimlarini aniqlaydigan hamda ularning psixologik portretini yaratish uchun xizmat qildirilgan Davlat xizmatchilari sinovdan o'tkazish elektron axborot tizimidir. Mazkur tizim davlat xizmatini raqamlashtirishni fuqarolarga yana bir maksimal qulaylik yaratish bilan boyitdi, deyish mumkin.

Fuqarolar bugun vaqtini behuda o'tkazib, davlat idoralarga borishi, navbatda turishi shart emas. Kerakli mobil ilovalar orqali zarur xizmatdan foydalanish tartibi juda oddiy, hammasi

bir joyda va "yagona oyna"da ishlaydi. Kelajakda barcha sohalar kabi davlat fuqarolik xizmatida mavjud elektron loyihalar bir joyda jamlanadi va fuqarolarda "Qayerga borish kerak?" yoki "Bu qaysi platformada?" degan savollar tug'ilmaydi.

Joriy yilgi davlat dasturida davlat fuqarolik xizmatini zamonaviy standartlar asosida raqamlashtirish maqsadida "Davlat xizmatchisi" mobil dasturini joriy etish vazifasi belgilangan. Shundan kelib chiqib, davlat fuqarolik xizmatchisining yuridik hamda jismoniy shaxslar bilan ish faoliyatiga oid munosabatlarini raqamlashtirish yuzasidan tahlil o'tkazildi. Xususan, davlat xizmatini tizimini raqamlashtirish, shuningdek, davlat xizmatchisining yuridik va jismoniy shaxslar bilan munosabatini yagona elektron tizim orqali tashkil etish bo'yicha jahon tajribasi tahlil qilinganda, Osiyo mamlakatlarida "Raqqamli davlat xizmati" tizimini shakllantirish va

rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi model davlat faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilayotgani namoyon bo'ldi.

Ushbu tizim Janubiy Koreya, Singapur va Yaponiyada muvaffaqiyatli joriy etilgan bo'lib, davlat xizmatchilari uchun mo'ljallangan bunday dasturlar "Elektron hukumat" tarkibiy qismi sifatida shakllantirilgan hamda mamlakatning yagona interaktiv portaliga integrallashtirilgan.

**G'ARB DAVLATLARIDA ELEKTRON HUKUMATNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI DAVLAT XIZMATCHILARINING FUQAROLAR VA BIZNES VAKILLARI BILAN MULOQOTLARI UCHUN YARATILGAN YAGONA PLATFORMANI ISHLAB CHIQUISHNI O'Z ICHIGA OLGAN. SO'NGGI YILLARDA YEVROPANING AKSAR MAMLAKATLARI TOMONIDAN MA'MURIY ISLOHOTLAR VA DAVLAT XIZMATCHILARINING FUQAROLARGA XIZMAT KO'RSATISHINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA AKTNI KENG JORIY ETISHGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA.**

G'arb davlatlarida elektron hukumatni shakllantirish strategiyalari davlat xizmatchilari fuqarolar va biznes vakillari bilan muloqotlari uchun yaratilgan yagona platformani ishlab chiqishni o'z ichiga olgan. So'nggi yillarda Yevropaning aksar mamlakatlari tomonidan ma'muriy islohotlar va davlat xizmatchilari fuqarolarga xizmat ko'rsatishini samarali tashkil etishda AKTni keng joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Rossiyada "Davlat xizmatchilari malakasini oshirish" mobil dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, u kadrlar ishini muvofiqlashtirish, davlat xizmatchilari



ko'rishi, milliy qonunchilikni o'riganishi, davlat xizmatiga kirish haqidagi boshqa ma'lumotlar bilan tanishishi mumkin.

Tahlillar ko'rsatmoqdaki, davlat xizmatchilariga mo'ljallangan mobil dasturlarni joriy etish jarayonida kadrlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi malakasini oshirish, davlat sektori oldiga davlat xizmatchilari raqqamli ko'nikmalarini professional darajada rivojlantirish bo'yicha qator vazifalarni amalga oshirish, ya'ni xodimlarni qo'shimcha o'qitish masalasi ham dolzarb hisoblanadi.

"Davlat xizmatchisi" mobil dasturida davlat xizmatchilari haqidagi, masalan, umumiy ma'lumotlar, mehnat faoliyati, qarindoshlari, sog'lig'i haqidagi va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar aks ettiriladi. Ta'lim bo'limida diplomlar, sertifikatlar, stajirovkalar aks etsa, test sinovi bo'limida test natijalari qayd etib boriladi. Mobil dasturning "Karyera" bo'limida davlat fuqarolik xizmatidagi vakant lavozimlar, shuningdek,

vakansiyalar va ishga kirish uchun arizalar bilan ishlash mumkin. Ushbu tizimda har bir davlat xizmatchisi shaxsiy rivojlanishini monitoring qilib borish imkoniga ega bo'ladi.

Mobil dastur "Elektron hukumat"ning qator tizimlari — yagona interaktiv davlat xizmatlari portali ([my.gov.uz](http://my.gov.uz)), foydalanuvchilarni identifikatsiyalashning yagona tizimi ([id.egov.uz](http://id.egov.uz)), axborot tizimlari va resurslari yagona reyestri ([reestr.uz](http://reestr.uz)), davlat fuqarolik xizmatining yagona tizimi ([vacancy.args.uz](http://vacancy.args.uz)), davlat fuqarolik xizmatini vakant lavozimlarining yagona ochiq portali ([vacancy.args.uz](http://vacancy.args.uz)), davlat fuqarolik xizmatchilari sinovdan o'tkazish moduli ([test.args.uz](http://test.args.uz)) hamda davlat fuqarolik xizmatchilari malakasini oshirish portali ([ilm.args.uz](http://ilm.args.uz)) bilan integratsiya qilinadi.

Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi innovatsion yechimlarga ega dasturlarni davlat fuqarolik xizmatchilariga taqdim etib keladi. Shuningdek, ushbu tizimlarni ishga tushirish orqali axborot xavfsizligini ta'minlash, shaxsga oid ma'lumotlarni sir saqlash va himoyalash tizimi joriy etilmoqda.

Mazkur elektron dasturning amaliyotga joriy etilishi davlat organlari va tashkilotlarining davlat fuqarolik xizmati sohasidagi faoliyati ochiqligi va hisobdorligi, davlat fuqarolik xizmatidagi vakant lavozimlar meritoratsiya tamoyili asosida eng munosib nomzodlar bilan to'ldirilishiga zamin yaratadi. Davlat xizmatchilari, ularning kasbiy fazilati va xizmatlariga adolati va xolis baho berilishiga, davlat organlari va tashkilotlari zarur bilim va kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lgan malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishiga, davlat xizmatchilari qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari, shuningdek, ularning natijalarini baholash to'g'risida ma'lumot bazasi shakllantirilishiga erishiladi. Milliy kadrlar zaxirasini shakllantirish imkoniyati yaratilib, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining son va sifat tarkibi tahlili uchun zamin yaratiladi.



# "YASHIL" TARAQQIYOT UCHUN OVOZ BERING!

## O'ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASIDAN O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTLIGIGA NOMZOD ABDUSHUKUR HAMZAYEVNING SAYLOVOLDI DASTURI KENG JAMOATCHILIK NIGOHIDA

**"Tabiat uchun birlashaylik!". Bu O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev ilgari surayotgan g'oya va takliflar asosini tashkil etadi. Zero, bugun dunyoni tobora egallab borayotgan ekologik muammolar yechimi uchun jahon afkor ommasi, mamlakatlar, mintaqalar birlashmoqda. Ona tabiatni ekologik xavfdan qutqarish uchun ham fikr va hamjihatlikda kurashmoqda.**



Dunyo bo'ylab kuzatilayotgan iqlim o'zgarishlari, qurg'oqchilik, cho'llanish kabi ekologik tahdidlar bizning mintaqamizga ham bevosita daxldor masala hisoblanadi. Ekologik vaziyat, bu borada yuzaga kelayotgan har bir xavf chegaraga bilmay, juda tezlik bilan muayyan mintaqa doirasidan chiqib, global muammoga aylanishini Orol fojiasi misolida ham yaqqol ko'rdik.

Shuning uchun ham mamlakatda atrof-muhit holatini yaxshilash va ekologik muammolarni tizimli ravishda hal etishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish har doimgidan-da dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonning nafaqat bugungi hayoti, balki ertangi kuni, farzandlarimiz kelajagi uchun ham atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash eng ustuvor vazifalar sirasiga kiradi.

Mamlakatimizda boshlangan muhim siyosiy jarayon — O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida Ekologik partiyasi



**Hokimxon MAKSUMOV,**  
*O'zbekiston Ekologik partiyasi Markaziy Kengashi a'zosi:*

— Abdushukur Hamzayevning saylovoldi dasturida mamlakatda polietilen, poliamid tarkibli qadoqlash mahsulotlari, bir martalik ishlatiladigan plastik va boshqa idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechish masalasi chiqindilar bilan bog'liq masalalarni hal etishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, dasturda har qanday investitsiya loyihalarini ishlab chiqishda, tabiiy resurslar bilan bog'liq loyihalarni amalga oshirishda, normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishda ularning atrof-muhitga ta'sirini baholash tizimini joriy etish hamda atrof-muhitga ta'sirini baholovchi subyektlarga nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilash kabi vazifalar ilgari surilyapti.

Bu tabiatga yetkazilishi mumkin bo'lgan zararni oldini olishda va uni hisob-kitoblar asosida aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Shavkat HASANOV,**  
*Toshkent davlat agrar universitetining Samarqand filiali direktori, iqtisod fanlari doktori, professor:*

— O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Abdushukur Hamzayev bilan mehnat faoliyatimizni Samarqand qishloq xo'jaligi institutida boshlaganmiz.

Ochig'i, so'ngi yillarda o'rmonchilik sohasi bo'yicha juda kam dissertatsiya himoya qilingan, ko'plab izlanuvchilar ilmiy ishlarini oxiriga yetkazolmagan edi. Abdushukur Hamzayevning tashabbusi bilan ko'plab yoshlar sohaga qayta jalb etilib, 5-6 yil ichida 20 dan ziyod dissertatsiya himoya qilindi. Natijada o'rmon xo'jaligi sohasida faoliyat ko'rsatayotgan olimlarning o'rtaacha yoshi 71 dan 52 yoshga yoshardi, institutda ilmiy salohiyat 17 foizdan 47 foizga oshdi.

Nomzodning Saylovoldi dasturini diqqat bilan o'qib chiqdim. Aytishim kerak, dasturda bugungi ekologik holatga, mavjud muammolarga real baho berilgan, aniq yechimlar taklif etilgan.

Ilm-fan sohasida faoliyat yuritgan mutaxassis sifatida saylovoldi dasturida ta'lim, ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishga katta e'tibor qaratilganini alohida e'tirof etmoqchiman. Jumladan, ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini hayotga izchil va samarali tatbiq

ham o'z nomzodi bilan ishtirok etayotgani jamiyatimiz hayotida partiyamizning o'rni va nufuzini yanada oshirish va bevosita eng dolzarb masalalar bo'yicha yaqindan muloqot qilishga katta imkoniyatdir.

Partiyamizdan Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturidan O'zbekistonning buguni va kelajagi uchun xizmat qiladigan keng ko'lami chora-tadbirlar majmui o'rin olgan.

Xususan, unda mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlash va "yashil" iqtisodiyotga o'tishini jadallashtirish, ekologik xavfsizlik, energetika xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, shuningdek, aholi uchun qulay atrof-muhit sharoitlarini yaratish kabi yo'nalishtirish bugun xalqimiz duch kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va uni bartaraf etishga yechim bo'ladigan aniq takliflar mujassam.

Shuningdek, iqlim o'zgarishlariga moslashish, tabiatni muhofaza qilish va uning resurslaridan oqilona foydalanish, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi hududini ijtimoiy, iqtisodiy rivojlantirish hamda qulay atrof-muhit yaratish, tabiiy-texnologik holatlar oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan barcha vaziyatlar yuzasidan tizimli ishlarni olib borishga oid dasturiy maqsadlar ham saylovchilarni bafarq qoldirmaydi.

Bundan tashqari, davlat va jamiyat boshqaruvi, sud-huquq tizimi, sog'liqni saqlash, ta'lim, ilm-fan va madaniy-ma'rifiy sohalarni yanada rivojlantirishga qaratilgan takliflar O'zbekistonning "yashil" taraqqiyot yo'lga asoslangani bilan ahamiyatlidir.

Shu o'rinda O'zbekiston Ekologik partiyasidan Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning Saylovoldi dasturi haqida partiya faollari o'z fikr-mulohazalari bilan bo'lishdi.

Shu bilan birga, yerning unumdor qatlamlini muhofaza qilish, undan samarali foydalanish, tuproq eroziyasining oldini olish va unumdorligini saqlash, uni qayta tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar rejayi ham nomzodning dasturidan o'rin olgan.

Ko'p yillardan buyon ekologiya sohasida ishlab, tajribamdan kelib chiqib aytishim mumkinki, bugun juda ko'p miqdordagi unumdor yerlarimiz, hosildor tuproqli kaltakatta maydonlar muhofazaga muhtoj. Masalan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish uchun ishlatilayotgan kuchli zaharli pestitsidlarini qisqartirish taklif etilayotgani ham yerlarni muhofaza qilishga va mamlakatda ekologik toza mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Ma'lumotlarga ko'ra, respublikamizda qishloq xo'jaligi ekinlarini zararli hasharot, kasallik va begona o'tlardan himoya qilishda har yili yuqori qiymatda zaharli kimyoviy preparatlar ishlatilmoqda. Bu inson salomatligi va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq masala hisoblanadi. Nomzod bu usuldan voz kechish, o'simliklarni esa kasallik-zararkunandalardan himoya qilishning biologik usullarini tizimli joriy qilish tashabbusini ilgari surmoqda.

Boisi, chekka hududlarda ham yangi tibbiyot maskanlari bunyod etilayotgani bilan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar bilan ta'minlash, bepul beriladigan dori-darmon ta'minotini yaxshilash, tez tibbiy xizmat tizimini yaxshilash, aholi o'rtasida kasalliklar ko'payishi va kamayishi, surunkali kasalliklar turining oshiriladi.

Men nomzodni va uning saylovoldi dasturini to'liq qo'llab-quvvatlayman hamda barchani Abdushukur Hamzayevga ovoz berishga chaqiraman!



etish, aholining ekologik bilimlarini oshirishga qaratilgan **"Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish to'g'risida"** dastur qabul qilish, uzluksiz ta'limning barcha bosqichlarida ekologik ta'lim-tarbiya tamoyillarini joriy etish, foydali qazilmalarni aniqlash, qazib olish va qayta ishlashning ilmiy-texnik darajasini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish kabi muhim vazifalar ustuvor etib belgilanmoqda.

Bu esa mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

**Boriy ALIXONOV,**  
*Oliy Majlis Senatining Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi, partiya Markaziy Kengashi a'zosi:*

— Men Abdushukur Hamzayevni ko'p yillardan buyon samimiy inson, bilimli rahbar va olim sifatida yaxshi taniyman. Bu insonni nafaqat respublikamizda, qolaversa, mintaqada ekologik muammolar yechimi bo'yicha tajribali va yetakchi mutaxassislardan biri sifatida bilaman. U mehnatkashligi, qat'iyligi va o'z oldiga qo'ygan maqsadlari bilan tajribali, yuqori salohiyatga ega ekologlarni atrofiga birlashtira oldi.

Nomzodning saylovoldi dasturida belgilangan ustuvor vazifalar jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalarini o'z ichiga olgan. Jumladan, mamlakatda atrof-muhit holatini yaxshilash va ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirish, barqaror ekologik rivojlantirish maqsadlariga erishish orqali atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish, "yashil" iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini jadallashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, aholining qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini hamda ekologik xavfsizligini ta'minlash kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadida shaharlar Bosh rejasini tuzishda ularda **yashil maydonlar kamida 30 foizni** tashkil etishi, yangi



turar joy binolari qurilishida **yashil hududlar** aholi soniga mutanosib ravishda bo'lishi lozimligi haqidagi talab qonunchilikda mustahkamlab qo'yiladi. Mana shuning o'zi so'ngi yillarda yashil hududlar qisqarib borayotgani yuzasidan keng jamoatchilik bildirayotgan haqli talablarga ayni javob bo'ladi.

Yashil hududlarda, tog' yon bag'irlari, daryo va ko'llar sohillarida har qanday qurilishlar, albatta, ekologik ekspertiza va jamoatchilikning tegishli xulosasidan so'ng amalga oshirilishiga oid talab ham ko'pchilikning dildagi gap bo'ldi.

**Aysanem BEGIMOVA,**  
*O'zbekiston Ekologik partiyasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Kengashi raisi:*

— Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayev Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolarning oldini olish, ekologik muammolar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan dasturlar va loyihalarning hayotga tatbiq etilishida o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

So'ngi yillarda mamlakatimizda Orol dengizi qurishi oqibatlarini yumshatish va Orolbo'yi mintaqasi aholisining sog'lig'i, ijtimoiy himoyasi, hududni iqtisodiy rivojlantirishga hamda ekologik muvozanatni yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Nomzodning saylovoldi dasturida aynan **Orolbo'yi mintaqasida amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli ravishda davom ettirish** ko'zda tutilgan.

Xususan, Orol dengizining ekologik falokati oqibatlarini yumshatish orqali Orolbo'yi mintaqasida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini, aholining yashash sharoitlarini yanada yaxshilashga e'tibor qaratilishi belgilanmoqda.

Nomzodning dasturida Orolbo'yi hududidagi aholining bandligini ta'minlash, Nukus, Buxoro, Urganch, Xiva, Navoiy, Mo'ynoq kabi aholi yashash punktlari atrofiga **"yashil belbog'lar" barpo etish** kabi muhim masalalar belgilanganini juda ahamiyatlidir.

Mo'ynoq, Qo'ng'ir, Qorao'zak, Nukus, Chimboy va Shumanay kabi Orolbo'yiga yaqin tumanlar aholisini har tomonlama qo'llab-quvvatlab, muhojalarni amalga tatbiq qilish bugungi kunning dolzarb masalasi sanaladi.

Orol dengizi fojiasi natijasida suv resurslari tanqisligi, cho'llanish xavfining ortishi, biologik xilma-xillikning kamayishi, iqlim o'zgarishi va boshqa global ekologik muammolar tobora keskinlashib bormoqda.

Nomzod Saylovoldi dasturida Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik vaziyatni yumshatishga doir vazifalarni taklif qilar ekan, ayni shu masalalarga e'tibor qaratmoqda. Orolbo'yi mintaqasida ekologik innovatsiya va texnologiyalarni tatbiq etish ishlari kuchaytirish orqali aholini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlaymiz va ular uchun munosib yashash sharoitlarini yaratib, turmush darajasini jiddiy tarzda yaxshilaymiz.

Shuning uchun ham atrof-muhit masalalariga bafarq bo'lmagan barcha yurtdoshlarimizni Abdushukur Hamzayevga ovoz berishga chaqirib qolaman!

**Vasila ALIMOVA,**  
*Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi direktori, partiya Markaziy Kengashi a'zosi:*

— Nomzodning Saylovoldi dasturida belgilangan tibbiyot sohasidagi vazifalar o'zining ahamiyati va xalqimizning qulay atrof-muhitda yashash huquqlari ta'minlashi bilan bevosita bog'liq ekanini ta'kidlamog'chiman.

Tan o'laylik, ekologik nomaqbul bo'lgan hududlarda istiqomat qiluvchi aholini qiyinlab kelayotgan kasalliklarni aniqlash, tabiat va hayvonot dunyosiga yetayotgan tibbiy ziyorat darajasini baholash va vaziyatni yaxshilash borasidagi vazifalar bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Boisi, chekka hududlarda ham yangi tibbiyot maskanlari bunyod etilayotgani bilan, zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega kadrlar bilan ta'minlash, bepul beriladigan dori-darmon ta'minotini yaxshilash, tez tibbiy xizmat tizimini yaxshilash, aholi o'rtasida kasalliklar ko'payishi va kamayishi, surunkali kasalliklar turining oshiriladi.



o'zgarib borish tendensiyalari bo'yicha hali qilinadigan ishlar biosyor.

Yana bir masala. Keyingi vaqtlarda yirik shaharlarimizda atmosfera havosining ifloslanishi bilan bog'liq vaziyat jiddiy

hayoti uchun eng muhim omil bo'lgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning sifat ko'rsatkichlari ekologik normativlarga muvofiqligini ta'minlash, yer resurslari muhofazasini ta'minlovchi ustuvor vazifalarni amalga oshirish belgilangan.

Yer resurslari aholi turmush farovonligi, davlatning iqtisodiy salohiyati uchun moddiy ne'mat bo'lib, undan har qanday sharoitda ham oqilona, unumli foydalanishni tashkil etish mamlakatning buguni va kelajagi uchun o'ta muhim vazifa hisoblanadi. **Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, qishloq xo'jaligida foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta foydalanishga kiritish bo'yicha aniq maqsadlar ko'zda tutilmoqda.** Tuproqning unumdor qatlami buzilishi bilan bog'liq jarayonlarda, keyinchalik yerni reaktivatsiya qilish yoki unumdorligi past yerlarda foydalanish uchun tuproqning unumdor qatlami olinishiga chek qo'yish borasida davlat va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish taklif etilyapti.

Bir so'z bilan aytganda, nomzod tomonidan taklif etilayotgan dasturiy maqsadlar jamiyatimizning bugungi kundagi dolzarb muammolari yechimiga yo'naltirilgan strategik vazifalarni to'liq qamrab olgan bo'lib, ularni amalga oshirishda davlat dasturlariga muvofiqlashtirish mamlakatning barqaror rivojlanishiga, xalqning farovon hayotiga zamin yaratadi.

Barchani Abdushukur Hamzayev nomzodini qo'llab-quvvatlab ovoz berishga chaqiraman!

**Zinoviy NOVISKIY,**  
*O'zbekiston Ekologik partiyasi faoli, qishloq xo'jalik fanlari doktori:*

— Abdushukur Xudoyqulovich respublikamizda ekologiya, qishloq, suv va o'rmon xo'jaligi sohasida tanilgi olim. Uning **300 ga yaqin ilmiy ishi** respublika va xalqaro miqyosdagi nashrlarda e'lon qilingan.

Nomzod qishloq xo'jaligi va ekologiya sohasi ilmining innovatorlaridan biri hisoblanib, yong'oq mevali ekinlarning 13 ta yangi navini yaratgan va respublikaning 9 ta hududiga tatbiq etgan. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi uchun muhim bo'lgan kartoshka, tarvuz, shirin makkajo'xori va batat kabi ekin navlarini ham yaratgan. Abdushukur Hamzayev tomonidan 15 dan ziyod ixtiro bo'yicha patent guvohnomasi olinib, ishlab chiqarishga keng joriy etilgan.

Mazkur tadqiqot natijalari nafaqat mamlakatimizda, balki bir qator rivojlangan davlatlarda yuqori e'tirofga sazovor bo'lgan.

Nomzodning mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida ilgari surayotgan takliflari ham yuqorida ta'kidlangan ilmiy tajribalarga asoslangan va aniq maqsadlar ko'zlangani bilan ahamiyatlidir. Jumladan, sug'oriladigan maydonlarni qayta tiklash imkoniyati cheklanganlarni inobatga olgan holda, **qishloq xo'jaligida "aqliq" va resurstejankor texnologiyalarni amaliyotga tezroq va jadal tatbiq etish** taklif etilyapti. Bu orqali mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, har yili quyov 1 millionga ko'payayotgan aholimizning oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoqini qondirish, bozorlarda narx-narivonni sun'iy oshib ketmasligiga erishish mumkin bo'ladi.

Abdushukur Hamzayevning ilmiy asoslangan takliflaridan yana biri — **"organik" qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni** kuchaytirish hamda kimyoviy vositalar va gen modifikatsiyalangan organizmlardan foydalanishni tartibga solishtirish. Olim sifatida aytishim mumkinki, O'zbekistonda shakllangan an'anaviy sabzavotchilik va bog'dorchilik madaniyati genlarni modifikatsiya qilish texnologiyalarini qo'llamasdan yoki kamroq qo'llab ham mazali ta'mi hamda iste'mol xususiyatlariga ega bo'lgan ekologik toza meva-sabzavotlar yetishtirish imkonini berga. Bu taklif qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan olimlarimizni ham bafarq qoldirmaydi, deb o'ylayman.

Shu bilan birga, nomzod dasturida ilm-fan sohasini rivojlantirishda ekologik tadqiqot va innovatsion faoliyat ko'lamini kengaytirishga alohida ahamiyat qaratilgan e'tiborga molik. Bunda, eng avvalo, ekologik toza, chiqindisiz va resurstejankor texnologiyalarni ishlab chiqarishga qaratilgan ilm-fan rivojini jadallashtirish hamda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida ilmiy mahsulotlar hajmini oshirish va innovatsion usullarni keng joriy etish belgilanmoqda.

huquq tarmog'ini rivojlantirish butunjahon tendensiyalariga mos keladi.

Nomzod o'z Saylovoldi dasturida chiqindilar sohasini tartibga soluvchi, xavfli chiqindilar, tibbiyot va biologik chiqindilar hamda qurilish chiqindilarini boshqarishni takomillashtirish, atrof-muhitga zarur yetkazuvchi qadoqlash materiallari hamda tovarlarga ekologik yig'imning huquqiy mexanizmlarini belgilovchi yangi tahrirdagi **"Chiqindilar to'g'risida"** qonunni qabul qilish taklifini ilgari surmoqda. Bu esa, sohani huquqiy tartibga solish bilan birga, chiqindilar muammosini hal etish imkonini beradi.

Barchamizga ayonki, aholini, ayniqsa, yoshlarni ona tabiatga hurmat ruhida tarbiyalash atrof-muhitni muhofaza qilishning muhim jihati, garovi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Nomzod dasturida mazkur masalaning ham yechimi o'z aksini topgan.

Shuningdek, ekologik muammolarni hal etishga doir strategiya va dasturlarni amalga oshirish uchun davlat organlari, tadbirkorlik subyektlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillarini jalb etish tashabbusi ham e'tirofga loyiq.

Saylovchilarni O'zbekiston Ekologik partiyasidan nomzod Abdushukur Hamzayevga ovoz berishga chaqiraman!



**“ KEYINGI VAQTLARDA YIRIK SHAHARLARIMIZDA ATMOSFERA HAVOSINING IFLOSLANISHI BILAN BOG'LIQ VAZIYAT JIDDIIY MUAMMAGA AYLANIB BORAYPTI. NOMZOD TOMONIDAN TA'KIDLANGAN ATMOSFERA HAVOSIGA SALBIY TA'SIR KO'RSATUVCHI HAR QANDAY XO'JALIK FAOLIYATI TURINI IFLOSLANTRUVCHI MODDALARNI TOZALASH USKUNALARI BILAN IJHOZLAMASDAN LOYIHALASHTIRISHNI TAQIQLASH, BU BORADA JAMOATCHILIK NAZORATINI KUCHAYTIRISH, HAR QANDAY NOQONUNYI QURILISH UCHUN JAZO MUQARRARLIGINI TA'MINLASH AHO'LIMIZNING AYNI KO'NG'ILDAGI ISTAKLAR, DEYISH MUMKIN.**

muammoga aylanib boryapti. Nomzod tomonidan ta'kidlangan atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi har qanday xo'jalik faoliyati turini ifloslantiruvchi moddalarni tozalash uskunalarini bilan ijhozlamasdan loyihalashtirishni taqiqlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, har qanday noqonunni qurilish uchun jazo muqarrarligini ta'minlash aholimizning ayni ko'nglidagi istaklar, deyish mumkin.

Atrof-muhitga me'yordan ortiqcha ifloslantiruvchi moddalarni chiqarganlik uchun kompensatsiya to'lovlarini **5-10 barobargacha**

oshirish tashabbusini ham xalqimiz salomatligini ta'minlash uchun, albatta, samarali chora sifatida baholayman.

Men bir shifokor sifatida mazkur hayotiy muhim bo'lgan masalalar Prezidentlikka nomzodning Saylovoldi dasturidan o'rin olganligini olqishlayman va hayotga joriy etilishi aholi salomatligini muhofazalashga hissa qo'shadi, deb hisoblayman.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, atrof-muhit masalalariga bafarq bo'lmagan barcha yurtdoshlarimizni Abdushukur Hamzayevga ovoz berishga chaqirib qolaman.



**Hafiza ARTIKOVA,**  
*Buxoro davlat universiteti agronomiya va biotexnologiya fakulteti dekani, qishloq xo'jalik fanlari doktori, professor:*

— Men oliy ta'lim tizimida ishlayman. Dunyoda rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tendensiyasini ko'rsangiz uzoq faqat ilm-fan rivojini ta'minlash orqali erishilganiga guvoh bo'lasis. Olim inson har bir ishga ilmiy yondashadi va eng muhimi, har bir ish natijasining zarar keltiruvchi jihatlari bo'lmassligiga e'tibor qaratadi.

Prezidentlikka nomzod Abdushukur Hamzayevning mamlakatimizdagi ko'zga ko'rin-gan olimlardan biri ekanini alohida e'tirof etgan holda, Saylovoldi dasturida ham ko'zlangan maqsadlariga ilmiy yondashilganini, aniq yechimlar taklif etilganini ta'kidlash joiz.

Dasturda plastmassa mahsulotlari uchun muqobil materiallar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish, plastmassa mahsulotlari ishlab chiqarish, ularidan foydalanish va utilitatsiya qilish qoidalari jirosi ustidan nazoratni kuchaytirish taklif etilmoqda. Buning ahamiyati shundaki, shu orqali tobora dolzarb masalaga aylanib borayotgan chiqindi muammolarining oldini olish mumkin. Misol uchun, bugun mamlakatimiz sanoat korxonalarida yiliga o'rtaacha **115-120 million tonna** sanoat chiqindilari hosil bo'lmoqda, poligonlarda **3,5 milliard tonnaga** yaqin shunday chiqindilar yig'ilib qolgan.

Bundan tashqari, nomzod chiqindilardan ikkilamchi foydalanish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun bir qator amaliy

takliflarni o'rtaacha tashlamog'ida. Saylovoldi dasturida qayd etilganidek, bir martalik ishlatiladigan plastik va boshqa idishlardan foydalanishdan bosqichma-bosqich voz kechish vaqti yetdi.

Ekologik muvozanatni ta'minlashda bioxilma-xillikning ahamiyati beqiyos. Nomzod tomonidan aynan bioxilma-xillikni saqlash, uning iqtisodiy, estetik, sog'liqni saqlash, turizm rivojiga ta'sir etish jihatlari e'tiborga olgan holda, noyob turlar va ekologik tizimlarni saqlab qolishning samarali yo'llari taklif etilyapti. Jumladan, kamyon va keskin kamayish xavfi ostida turgan hayvonlarni ovlash va o'simlik turfarini tabiatdan ajratib olishga 10 yillik moratoriy e'lon qilish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



**BUGUNGI ISTE'MOLCHI HAM ANOYI EMAS. U O'Z HUQUQINI BILADI. SHU BOIS, MAHALLALAR AHLI O'ZBEKISTON ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH JAMIYATLARI FEDERATSIYASIGA MUHOJAT QILGAN. O'RGANISH JARAYONIDA BARCHA DALILLAR O'Z ISBOTINI TOPDI. XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARGA ORTIQCHA TO'LANGAN SALKAM 6 MILLIARD 179 MILLION SO'M ISTE'MOLCHILARGA QAYTARILDI.**

## ISTE'MOLCHI HAMISHA HAQ

NTTLAR HAYOTI

### Xizmat ko'rsatilmagan, ammo...

Ba'zan shunaqasi ham bo'lib turadi. Joriy yil qish mavsumida, to'g'rirog'i, anomal sovuq kunlari ko'plab joylarda, jumladan, Namangan viloyatining Mingbuloq, Kosonsoy, Davlatobod, Namangan, Norin, Pop, Uychi, Uch-qo'rg'on, Chortoq, Yangiqo'rg'on tumanlari va Namangan shahridagi, Samarqand viloyatining Urgut, Payariq, Ishitxon va Kattaqo'rg'on tumanlaridagi 589 ta mahallada qattiq maishiy chiqindilar yig'ishtirilmadi va to'liq olib chiqib ketilmadi. Sababi, o'sha kunlari chiqindi tashuvchi maxsus texnikalarga yonilg'i yetkazib berish to'xtab qolgandi.

Bu ikki viloyatdagi yuqorida tilga olingan tuman va shaharlarga "Toza hudud" DUK, "Namangan musaffo iqlim", "Orif nurli kelajak", "Chashmai safed-gaz", "Shohimardon Asqarov" oilaviy korxonalari va "Anvarjon Biznes Invest" mas'uliyati cheklangan jamiyati ikki tomonlama shartnoma asosida xizmat ko'rsatib kelgan. Shuni qiziqi, bu korxonalar xizmat ko'rsatmagan kunlari, ya'ni yanvar-fevral oylari uchun ham aholidan xizmat haqi olgan.

Albatta, bugungi iste'molchi ham anoyi emas. U o'z huquqini biladi. Shu bois, mahallalar ahli O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasiga murojaat qilgan. O'rganish jarayonida barcha dalillar o'z isbotini topdi. Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar ortiqcha to'langan salkam 6 milliard 179 million so'm iste'molchilarga qaytarildi.

### Yo'q joydan paydo bo'lgan kredit

Joriy yilning 6-aprel kuni Chiroqchi tumani iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatiga Ko'kdala tumani Zum qishlog'ida yashovchi fuqaro Y. S. murojaat qiladi.

Uning aytishicha, 2022-yilning sentabr oyidan buyon uyiga tumandagi "Agrobank" xodimlari kelib, xonadonida yer osti ichimlik suv qudug'ini qazish uchun 33 million so'm kredit rasmiylashtirilgan, uni to'lash vaqti kelgani haqida bezovta qilishayotgan ekan.

"Vaholanki, men bankdan bir tiyin ham kredit olmaganim", deydi u.

Ushbu holat tuman jamiyati xodimlari tomonidan o'rganildi. Natijada murojaatchi va bank o'rtasidagi shartnoma soxta ekan aniqlandi va ushbu soxta hujjat bekor qilindi.

Shu o'rinda bir nechta savol tug'ildi. Bu soxta shartnoma qayerdan paydo bo'ldi? Uni kim imzoladi? Mijoz bank bilan hech qanaqa shartnoma tuzmaganini aytgandan so'ng ham bank xodimlari nega undan pul so'rashda davom etdi, nega hujjatni tekshirib ko'rmadi? Bu pulni aslida kim olgan?

Ishonchimiz komilki, bu savollarga tegishli mas'ul idoralar javob izlash-moqda.

### Salkam 105,5 milliard so'm iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilindi

Ma'lumotlarga qaraganda, 2016-2022-yillarda O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasiga 83 367 ta murojaat kelib tushgan. Ular o'rganilishi natijasida salkam 105 milliard 422 million so'm iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilingan. 1215 ta ariza yuzasidan sud organlariga murojaat qilish taklifi berilgan yoki sudlarga da'vo arizalari kiritilgan. Federatsiya tizimidagi tashkilotlar tomonidan sud idoralarga kiritilgan da'vo arizalari bo'yicha salkam 6 milliard 942 million so'm mablag' iste'molchilar foydasiga undirilgan.

Beshkdagi go'dakdan 100 yoshdan oshgan chol-u kampirgacha, daladagi oddiy dehqonlar vazirlar-u davlat

rahbarigacha iste'molchi. O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi ularning iste'molchilik huquqlarini himoya qiladigan jamoat tashkiloti. Shu jamoat tashkiloti salkam 105 milliard so'm pulni iste'molchilar foydasiga hal etgan. Demak, necha minglab aholining iste'molchilik huquqi tiklangan. Eng muhimi, ularga yetkazilgan zarar qoplangan. Bu degani, shuncha xonadonga qandaydir darajada baraka kirgan.

— So'nggi yillarda jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida demokratik o'zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyati, ijtimoiy faolligi oshib



bormoqda, — deydi O'zbekiston iste'molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi raisi Jahongir Sarimsoqov. — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi "2021-2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni va ushbu hujjat asosida tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da jamoatchilik nazorati, davlat boshqaruvi va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtiroki darajasini oshirish masalasi ustuvor vazifa etib belgilangan. Korxonada, muassasa va o'quv yurtlarida a'zolari 600 ming nafardan iborat 4986 ta tayanch guruhimiz bor.

Jamoat tashkilotlari orasida birinchilardan bo'lib 2015-yildan boshlab federatsiya tizimida "1091" qisqa raqamli "ishonch telefoni" faoliyatini yo'lga qo'ydi. Shuningdek, murojaatlarini qabul qilib olish uchun istemol.uz saytidagi virtual qabulxona va 2021-yildan boshlab potretibteluz\_bot telegram boti ishlab turibdi.

### Xalqchil loyihalar

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, federatsiya 2018-yil 29-martdagi "Obod qishloq" dasturi to'g'risida gi Prezident farmoni asosida, o'sha yili o'z tizimida "Obod xonadon — yurt ko'rk'i" loyihasi ishlab chiqildi va amalga oshirishni boshladi.

Loyihadan ko'zlangan maqsad aholining turmush madaniyatini yuksaltirish yo'lida joylarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli bunyodkorlik ishlariga munosib hissa qo'shish, ijtimoiy

himoysiga muhtoj aholining turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashish, kam ta'minlangan, boquvchisini yo'qotgan, imkoniyati cheklangan, nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash edi.

Yurtimizning chekka hududlarida istiqomat qilayotgan, kam ta'minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, yashab turgan xonadoni avariya holatida bo'lgan 12 ta xonadon federatsiya mablag'larini hisobidan ta'mirlab berildi.

Farg'ona viloyatida istiqomat qiluvchi Bahridin Otayevning xonadonida limon ko'chatlari yetishtirishga mo'ljallangan zamonaviy issiqxona barpo etilib, xonadon egasi tadbirkorlik bilan shug'ullana boshladi. Xorazmlik Shahlo

Sobirova xonadonida gul ko'chatlari yetishtirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Eng muhimi, federatsiya tashabbusi bilan paydo bo'lgan ushbu loyihaga ko'plab homiy, hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan sektor rahbarlari qiziqish bildirib, unda ishtirok etdi.

Iste'molchi kutubxonasi ga marhamat Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan jamoatchilik boshqaruvi tizimini takomillashtirishda nafaqat davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, shuningdek, "Davlat — fuqarolik institutlari — tadbirkorlik subyektlari" tamoyili asosida federatsiya tashabbusi bilan ishlab chiqilgan loyihalardan biri "Iste'molchilar uyi" va "Iste'molchi kutubxonasi" loyihasi hisoblanadi.

Ushbu loyiha doirasida Oltiariq, Rishton, Bag'dod, Farg'ona, Marg'ilon, Qo'shtepa, Yozyovon, Dang'ara, Qiziltepa, Konimex, Navbahor, Tomdi, Olot, Qorako'l, Koson, Kasbi, Dehqonobod, Uzun, Boysun, Oltinsoy, Angor, To'raqo'rg'on, Izboskan tumanlari, Farg'ona, Zarafshon shaharlari hamda Sharg'un shaharchasida iste'molchi kutubxonalar va iste'molchilar uylari qurib, foydalanishga topshirildi. Bugungi kunda loyiha doirasida 71 ta tuman va shaharda qurilish ishlari davom etmoqda.

Zamonaviy uslubda qurilgan, o'ziga xos innovatsion yechimga ega "Iste'molchilar uyi" ma'muriy kompleksidan o'rin olgan "Iste'molchi kutubxonasi" fondidan O'zbekiston Respublikasi qonunlari va iste'molchilik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar, siyosiy-iqtisodiy qo'llanmalar, ma'rifiy, badiiy, ilmiy-ommabop kitoblar, respublikamizda nashr qilinadigan ijtimoiy-siyosiy va ommabop gazeta-jurnallar o'rin olgan. Bundan tashqari, iste'molchilarning huquqiy savodxonligini mustahkamlash maqsadida federatsiya hamda Toshkent davlat yuridik universiteti hamkorligida ishlab chiqilgan 16 turdagi yuridik adabiyotlar turkumi ham ushbu kutubxonalar to'kchalaridan joy olgan. Ta'kidlash joizki, ushbu kutubxonalarda 100 mingga yaqin kitobning elektron

bazasi ham shakllantirilgan bo'lib, bu o'quvchilarga kitoblarni arzon narxda, masofadan turib xarid qilishiga ham imkoniyat yaratib beradi.

### Xalqaro hamkorlik

Federatsiya tomonidan xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va uni amaliyotda qo'llash maqsadida ham salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Tojikiston, Qirg'izistonning turdosh tashkilotlari bilan federatsiya o'rtasida o'zaro hamkorlik memorandumlari imzolandi. Ushbu hujjatlariga asosan, turi yo'nalishlarda hamkorlik olib borish barobarida, mazkur mamlakatlar sayyohlari iste'molchilik huquqlarini mamlakatimizda, o'zbekistonlik sayyohlarining iste'molchilik huquqlarini sanab o'tilgan mamlakatlarda himoyalash bo'yicha kelishuvlarga erishilib, amaliyotga tatbiq etildi. Bu turizmni rivojlantirishni iqtisodiy strategiyaning yo'nalishlaridan biri sifatida belgilab olgan O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega.

Buyuk Britaniya, AQSH, Germaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Malayziya, Xitoy, Avstriya, Tailand, Vyetnam va Mo'g'uliston kabi mamlakatlarning turdosh davlat hamda nodavlat tashkilotlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yildi.

Iste'molchilarning huquq hamda qonuniy manfaatlarini xalqaro miqyosda himoya qilishda milliy va xalqaro jamoat tashkilotlarini faol qo'llab-quvvatlab kelayotgan xorijiy davlat, hukumat rahbarlari, hukumat a'zolari, iste'molchilar huquqlarini himoya qiluvchi boshqaruvi organlari rahbarlari orasidan eng munosiblarini taqdirlash maqsadida federatsiya "Yil odami" mukofotini ta'asis etgan edi. Mazkur mukofotning ilk sohibi BAA vitse-prezidenti, Bosh vaziri, Dubay Amirligi amiri Shayx Muhammad Ol Maktum bo'ldi.

### Texnik xatolik emish...

"To'g'liq" mahalla fuqarolar yig'ini hududida yashovchi T.S. xonadonining kadastr hujjatlarini tayyorlatish uchun "Farg'ona suv ta'minoti" MCHJning Toshloq tuman bo'limiga boradi. Maqsadi korxonada xizmatlari bo'yicha qarzdorligi yo'qligi haqida ma'lumotnoma olish edi. Korxonada mas'ullari unga xonadonning ichimlik suv to'lovlaridan 546 850 so'm qarzdorligi mavjudligini, ma'lumotnoma esa ushbu muammo bartaraf etilgandan so'ng berilishini bildirishgan.

T.S.ning aytishicha, uning xonadoniga hali ichimlik suv tarmog'i yetib bormagan.

Shu bois, iste'molchi yordam so'rab Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish tuman jamiyatiga ariza yozishga majbur bo'ldi. Murojaatni tuman aholisiga ichimlik suv yetkazib beruvchi korxonada mas'ullari hamkorligida o'rganilishi jarayonida arizada keltirilgan vajlar isbotini topdi. Xonadonga, haqiqatda ham, ichimlik suv tarmog'i hali yetib kelmagan ma'lum bo'ldi. Mas'ullarning aytishicha, qarzdorlik texnik xatolik tufayli yuzaga kelgan ekan.

\*\*\*

Federatsiyaga, uning viloyatlar boshqarmalari va tuman, shahar bo'limlariga iste'molchilardan har kuni ko'plab yuqoridagi kabi murojaatlar bo'lib turadi. Ular esa imkoniyat va o'zlariga yuklatilgan vakolat doirasida bu muammolarni hal etishga harakat qiladi. Bu yurtimizda yangilangan Konstitutsiyamizning 72-moddasidagi "Davlat nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta'minlaydi, ularga jamiyat hayotida ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi", degan tamoyil to'la amalga oshayotganidan dalolatidir.

**Bekkul EGAMQULOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



yuz.uz\_news

## INSON QADRI UCHUN

# Suv keldi, EL QAYTDI

Boshlanishi 1-betda

"Inson qadri ulug", degan ezgu tamoyil orqali rivojlanishni maqsad qilgan yurt odamlari bunday sharoitga tashlab qo'yilmaydi, albatta. Shu jihatdan olganda, hozirgi kunda Beltovda bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar ovul odamlarining ertangi kunga ishonchini mustahkamlab, yangi marralar sari undayotgani bor gap. Chunki bugun ovulda yangi hayot boshlangan. Avvalo, eng dolzarb muammo bo'lgan suv yetib keldi. Tuman markazidan 40 kilometr uzoqda joylashgan hududdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari qizg'in pallaga kirgan. Odamlar ketmoni bilan tomorqasiga chiqdi. Daraxt ekyapti. Necha yillardan buyon qarovsiz qolgan ovul qiyofasi asta-sekin o'zgarib bormoqda.

— Xuddi ertakdagidagi, ovuldagi o'zgarishlarni ko'rib, rostiy, yasharib ketdim, — deydi O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Rayhon Saparova. — Suvsizlikdan qaqragan yerda odamlar bodring, pomidor, kartoshka ekyapti. Mamlakatdagi ishlohtlar qishlog'u ovullar, odamlar hayotiga ko'chmoqda.

Hududda bugungacha 2 ming gektar yer o'zlashtirilib, shundan 1,5 ming gektariga paxta va boshqa poliz ekinlari ekildi. Bu mahsulotlarni yaxshi parvarishlash uchun mutaxassislar birkirildi. Ekiqan paxta tomchilatib sug'oriladi. Natijada suvdan tashqari



dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida yer osti artezian quduqlar qazish O'zbekiston Favqulodda vaziyatlar vazirligining maxsus muxandislik qurilish boshqarmasi tomonidan beg'araz amalga oshirildi.

— Suvsizlik tufayli 2012-yili ko'chib ketishga majbur bo'lgandik, — deydi Nag'ashboy Sao'qimov. — Ovulga suv keldi, deb eshitganimizdan so'ng yana qaytib keldik. Odamlarning kayfiyati yaxshi. Endi bekor emasmiz. Yerimiz bor. Tomorqamizga o'zimizga kerak ekinni ekib olamiz.

Beltovda suv havzalari tashkil etish va qishloq xo'jaligi ekinlarini tomchilatib sug'orish tizimi joriy etilishi mahalliy aholi bandligini



**HUDDUDA BUGUNGACHA 2 MING GEKTAR YER O'ZLASHTIRILIB, SHUNDAN 1,5 MING GEKTARIGA PAXTA VA BOSHQA POLIZ EKINLARI EKILDI. BU MAHSULOTLARNI YAXSHI PARVARISHLASH UCHUN MUTAXASSISLAR BIRKIRILDI. EKILGAN PAXTA TOMCHILATIB SUG'ORILADI. NATIJADA SUVDAN TASHQARI O'G'IT VA BOSHQA XARAJATLAR HAM TEJALDI.**



o'g'it va boshqa xarajatlar ham tejaldi.

"Beltov" ovul fuqarolar yig'inida yuqori texnologiyali irrigatsiya tizimi bunyod etildi. Orolbo'yi hududida qishloq xo'jaligi loyihasi uchun mutaxassislar, qurilish va qishloq xo'jaligi texnikasi jalb qilindi.

Baraka — harakatda, deyishadi. Chindan ham, Beltov ahli endilikda o'z mehnatlarini samarasini ko'ryapti. Hududda hayot tarzi butunlay o'zgarib keldi. Bundan barcha mamnun.

— To'rt sotix yerim bor, ro'zg'or uchun zarur mahsulotlarning deyarli hammasini shu tomorqadan o'layapmiz, — deydi Jumaboy To'raniyazov. — To'g'risi, ovulimizda so'nggi besh-olti yil ichida ko'p o'zgarish va yangilanishlar ro'y bermoqda. Ariqlarga suv kelib, ekin-tikin ishlariga kirishligani buning bir misoli.

"Beltov" ovul fuqarolar yig'ini hududidagi kam ta'minlangan, ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, hudud aholisining yashash sharoitini yanada yaxshilash, tomorqadan samarali foydalanishni ta'minlashga ko'maklashish, chorvachilik hamda

ta'minlashga va iqtisodiy rivojlanishga olib kelmoqda. Hududda keng ko'lami qurilish va obodonlashtirish ishlari esa davom etmoqda.

— Eng chekkada bo'lishimizga qaramay, turmushimiz yaxshilanib borayotgani barchani quvontirmoqda, — deydi "Beltov" ovul fuqarolar yig'ini raisi Muxtor Navro'zboyev. — Ishsiz odamlar, umid uchunlari so'ngan odamlar hayotida yangi sahifalar ochilmoqda. Aholining imkoniyati va kasbiy mahoratiga qarab ularni ish bilan band qilish choralarini ko'rilmogda.

Mahalla bolalari toza, yorug' va zamonaviy maktabda bilim olmoqda. 200 ga yaqin kichikintoy maktabgacha ta'lim muassasasida tarbiyalanmoqda. Tibbiyot punkti esa aholi salomatligini muhofazalashga xizmat qilmoqda.

Suv kelishi elni qaytardi. Binobarin, suv bekorga hayot manbai sifatida e'zozlanmaydi. Beltovdagi hayot yaxshi tomonga o'zgarayotgani boisi shunda aslida.

**Minatdin QUTLIMURATOV,**  
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



# YANGI SAYYOHLIK MANZILLARI



**Muhiddin PO'LATOV,**  
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## barcha uchun koni foyda

Joriy yil 29-mart kuni turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasida yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida soha rivojiga to'siq bo'layotgan qator muammolar tanqidiy tahlil qilinib, muhim chora-tadbirlar belgilandi. Ularning yechimi sifatida turizm dasturlarining mazmunini oshirish va xorijlik sayyohlarning mamlakatimiz hududida ko'proq qolishiga erishish taklif etildi. Turistik salohiyati mavjud tumanlarning bu jabhadagi faoliyatiga ko'maklashish uchun 11 ta oliy ta'lim muassasasi birlashtirildi.

o'lish muhim ahamiyatga ega. Ammo yaxshi kontentni yaratish qidiruv natijalarining birinchi qatorida paydo bo'lishga kafolat bermaydi. Afsuski, qidiruv platformalari baholash parametrlarini to'liq oshkor qilmaydi. Shuni inobatga olgan holda axborot manbalarining kontentini boyitish va ularning targ'ibotini kuchaytirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Navoiy boshqa hududlar kabi katta turistik salohiyatga ega, ammo ulardan to'laqonli foydalanmayotgan viloyatlardan



Buning uchun, avvalo, Konimex, Navbahor yoki Nurota tumani hududidagi toshbaqalar populyatsiyasi katta bo'lgan lokatsiyada toshbaqa shaklidagi binoda joylashgan Toshbaqa muzeyini ochish, uni sudralib yuruvchilarga oid qiziqarli ma'lumotlarni aks ettiruvchi eksponatlar bilan boyitish, yil davomida tirik toshbaqalarni ko'rish imkonini beruvchi pitomnikni tashkil etish mumkin.

Ikkinchidan, Navbahor tumanidagi Sarmishsoy darasida joylashgan dam olish maskanlarida ibtidoiy jamoa tuzumi davridan to'rtta asrlargacha bo'lgan davrda mahalliy xalqlar turmushida ishlatilgan sopol idishlar yasash, teridan kichik buyumlarni tikish, shuningdek, sun'iy qoyatoshlarda suratlar chizish ustaxonalarini (o'sha vaqtdagi toshdan yasalgan uylar ko'rinishida) tashkil etish ham sayyohlar qiziqishini oshiradi.

Uchinchidan, Navoiy tog'-kon metallurgiya kombinati hududida O'zbekiston sanoat turizmi markazini tashkil etish, sayyohlar tomonidan belgilangan masofada ochiq karyer tizimida olib borilayotgan qazilma ishlarini kuzatish imkonini beruvchi infratuzilmani yaratish taklifi mavjud.

To'rtinchidan, Xatirchi tumanining "Tasmachi", "Oltinsoy", "Uchqora" va Akmal Ikromov mahalla fuqarolar yig'inlarida uzumchilikka asoslangan agroturizm yo'nalishlarini tashkil etish lozim.

Beshinchidan, Navoiy viloyati Karmana tumanidan o'tuvchi M-37 xalqaro avtomagistralda joylashgan Raboti Malik va Sardoba yodgorliklari yaqinida Malikcho'l o'lkashunoslik markazini ochish, uning tarkibida hududning etnografiyasini aks ettiruvchi o'lkashunoslik muzeyi hamda cho'l hududida yashaydigan jonivorlardan iborat hayvonot bog'ini tashkil etish zarur.

Viloyat hududida sayyohlar e'tiborini tortadigan qator ommaviy tadbirlarni, jumladan, Xatirchi tumanidagi "Sangijumon" MFY hududida milliy kurash va kamondan o'tish bo'yicha xalqaro ochiq chempionat, Qiziltepa tumanidagi To'dako'l ko'lida baydarka, akademik eshkak eshish va syorning musobaqalari, Navbahor tumanidagi Sarmishsoy davlat muzeyi qo'riqxonasining qoyatosh suratlarini tushirilgan darasida "Tasviriy san'at: etnos va arxeologiya" xalqaro tasviriy san'at va arxeologiya forumini o'tkazish samara beradi.

Bundan tashqari, Xatirchi tumanining Angidon ekohududida yoshlar uchun maxsus forum, Xatirchi, Nurota, Navbahor, Karmana va Qiziltepa tumanlararo turizm haliqasi bo'ylab Markaziy Osiyo ochiq velomarafoni, Nurota tumanining Aydarko'l hududidan Orol dengiziga qo'lgan masofada xalqaro "Great Silk Road Desert Ralli" sahro ralli musobaqalarini tashkil etish mumkin.

Respublika va xalqaro darajadagi ommaviy tadbirlar, animatsion dasturlar tashkil etish rejasini ishlab chiqish, oliy va professional ta'lim muassasalari talabalari ishtirokida besh muhim tashabbus tadbirlarini o'tkazish, Navoiy viloyatining sayyohlik salohiyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda 2024-yilga mo'ljallangan sayyohlik taqvimini ishlab chiqish, unga yil davomida o'tkaziladigan xalqaro va respublika darajasidagi tadbirlarni kiritish maqsadga muvofiq. Sayyohlik obyektlari, ziyoratgohlar va dam olish maskanlariga olib boradigan yo'l ko'rsatkichlar va xaritalar, hududga tegishli reklama bannerlari, ayniqsa, ovqatlanish, hotel, motel, dorixona, avtomashinalarga texnik xizmat ko'rsatish kabi xizmatlar reklamalarni tashkil etish zarurati mavjud.

Qolaversa, hududlarda turizmni jadal rivojlantirish maqsadida turizm xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar, ta'lim muassasalari, qo'shimcha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va turizm sohasiga yondosh tarmoq/sohalar hamkorligidan iborat klaster yondashuvini joriy qilish sayyohlik imkoniyatini oshirishi shubhasiz.

### Boshlanishi 1-betda

2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan maqsad va vazifalarni bajarish asosida turizm sohasini iqtisodiyotni diversifikatsiyalash, hududlarni jadal taraqqiy ettirish, yangi ish o'rinlari yaratish, aholining daromadi va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

2019-yilning so'ngida butun dunyoda turizm sohasi turg'unligiga sabab bo'lgan COVID-19 pandemiyasi mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. 2020-yil davomida yurtimiz hududida joylashgan, sayyohlarga xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tanazzulga uchrashi mumkin edi. Ammo turizm sohasi subyektlari uchun berilgan imtiyozlar vaziyatni mo'tadillatirishga xizmat qildi. Karantin talablari yumshatila boshlagandan keyin bir muddat uyda o'tirishga majbur bo'lgan odamlar sayohat qilishga intila boshladi. Natijada 2021-yili turizm sohasida jonlanish sezildi. O'tgan yili yurtimizga tashrif buyurgan xorijlik sayyohlar soni 2021-yildagiga nisbatan 3 barobar oshgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Yangi turizm markazi barpo etilgan natijasida Samarqandga qo'shimcha 2 million sayyoh kelgan.

Bu raqamlar nisbati, albatta, quvon-tirmay qolmaydi, ammo mamlakatimizning sayyohlik salohiyatini inobatga oladigan bo'lsak, bu ko'rsatkichlar yetarli emas. Bunga asosiy sabab sifatida mamlakatimizning sayyohlik imkoniyati to'liq tadqiq qilinmagan, sayyohlarni jalb qilishi mumkin bo'lgan, turistik jozibadorlikka ega hududlar to'g'risidagi ma'lumotlar keng ommaga ma'lum emasligi, ular to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni olish imkoniyati cheklanganini ko'rsatish mumkin.



Samarqand iqtisodiyot va servis instituti zimmasiga Navoiy viloyatining Nurota, Xatirchi va Qiziltepa tumanlari turistik salohiyatini tadqiq qilish va yig'ilishda belgilangan vazifalarni bajarish yuklatildi. Bu to'pshiriqlarning eng asosiyi va ko'proq mehnat hamda e'tibor talab qiladigan turizm kontentini yaratish va takomillashtirishdir. Shu o'rinda "kontent" tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsadga muvofiq. Kontent deganda sayt (elektron portal)ning axborot tarkibi (matnlar, grafik, ovozi ma'lumotlar va boshqalar), shuningdek, kitob, gazeta, maqolalar to'plami, materiallar va boshqalar tushuniladi.

Qayd etilgan barcha ma'lumotlar turli formatlarda taqdim etilishi mumkin. Masalan, axborot manbasi hisoblanayotgan sayt yoki elektron portal ko'pincha reklama bannerlarini o'z ichiga oladi. Ammo kontent tarkibi qanchalik yaxshi bo'lmasin, foydalanuvchi ko'mmasa, undan foyda yo'q. Iloji boricha ko'proq odam ma'lumotlar haqida bilib olishi uchun "mijozni jalb qilish" bilan shug'ullanish kerak. Yaxshi kontentdan samarali foydalanish uchun qidiruv saytlari tomonidan taqdim etiladigan natijalar ro'yxatidagi oldingi qatorlardan o'rin

biridir. Uning hududida ekologik, geologik, tarixiy, arxeologik, arxitektura, rekreatsion, sog'lomlashtirish, gastronomik va monumental turistik resurslar mavjud bo'lib, ulardan faqat bir nechasi sayyohlik firmalari e'tiborida. Viloyatda mavjud 20 dan ziyod sayyohlik firmasidan 12 tasi samarali faoliyat yuritmoqda. Umuman olganda, viloyatdagi turistik resurslar kiritilgan 12 ta turizm paketi ishlab chiqilgan. Ularning o'rtacha davomiyligi 1,5 kuni tashkil etadi.

2022-yilda viloyatga 1 million 19 ming sayyoh kelgan bo'lib, ularning 26,2 ming nafari xorijlik hamda 992 mingi mahalliy aholidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, mahalliy sayyohlarning faqat 0,4 foizi turfirmalar hissasiga to'g'ri keladi. Bu 2018-yildagiga nisbatan 6 barobar kam. Sayyohlarning asosiy qismi Nurotdagi Chashma ziyoratgohi, To'dako'l va Aydarko'l suv omborlari atrofida dam olish maskani, Sentob turizm qishlog'i, Karmana tumanidagi Raboti Malik va Sardoba yodgorliklari, Qosim Shayx masjidi, Mir Said Mahram maqbarasi, Mavloni Orif Deggaroniy maqbarasi, Konimex tumanidagi o'tovli lagerlar, Oltinsoy sanatoriysiga bormoqda. Vaholanki, viloyat miqyosida madaniy meros ro'yxatiga kiritilgan 437 ta obyekt mavjud.

erkin harakatlanishi uchun qo'shimcha qulaylik yaratadigan hamda ma'lumot berishi mumkin bo'lgan yo'l ko'rsatkichlar, turistik xaritalar va infokiosklar, har bir sayyohlik obyekti, xususan, ziyoratgohlarning kirish qismida uning tarixiga oid faktlar va boshqa zaruriy ma'lumotlar yetarli emas. Turizm xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar, ta'lim muassasalari hamda sohaga yondosh tarmoqlar hamkorligi samarali yo'lga qo'yilmagan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda Navoiy viloyatining turistik jozibadorligini oshirish, turizm sohasining faoliyatini jadallashtirish va ko'rsatiladigan xizmatlar sifatini oshirish maqsadida qator chora-tadbirlarni taklif qilish mumkin. Jumladan, sayyohlarga to'liq va foydali ma'lumotlar beruvchi kontentni shakllantirishda obyekt geolokatsiyasi yoki xaritasi, fotojamlanmasi, obyekt to'g'risida ma'lumot, uning atrofidagi faoliyat ko'rsatayotgan mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari hamda umumiy ovqatlanish korxonalari, shuningdek, obyekt haqida qo'shimcha va foydali ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab olgan turli tillardagi nashrlarni tayyorlash va keng ommaga yetkazish maqsadga muvofiq. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar va turizm sohasiga oid saytlardagi kontentlarni muntazam yangilab borish, sayyohlar diqqatini tortadigan ma'lumotlar bilan to'ldirib borish, kontent matrisasini yaratish va undan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy qilish taqozo etiladi.

Viloyat hududidagi turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlar taqchilligi muammosini hal qilish uchun Navoiy davlat pedagogika institutida xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarni, turistik manzillar atrofida yashovchi, xorijiy tillarni mukammal biluvchi shaxslarni Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bilan hamkorlikda maqsadli tayyorlash mumkin. Bo'lg'usi mutaxassislariga qo'shimcha gid-ekskursovod malakasini berish, turistik infratuzilma tarkibidagi barcha korxonalar va tashkilotlar xodimlari uchun seminar-treninglar, qisqa o'quv kurslari tashkil etish imkoniyati mavjud.

Kelayotgan sayyohlarning aniq sonini hisoblash maqsadida turistik oqimni boshqarish hamda statistik hisobni yuritish bo'yicha hududlarda foydalanish mumkin bo'lgan metodikalar taklifini ishlab chiqish, ziyoratgoh va dam olish maskanlarida imtiyozli kirish chiptalarini joriy qilish va shu orqali turistik oqim statistikasini yuritishning optimal yechimlarini tadqiq qilsa bo'ladi. Hududlardagi sayyohlik yo'nalishlari kiritilmagan obyektlarning imkoniyatini baholash, ulardan sayyohlikda foydalanish mumkin bo'lganlarini tanlab olish va yangi yo'nalishlar ochish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish kerak. Shuningdek, viloyatda mavjud bo'lgan turistik resurslar jozibadorligini va sayyohlar qiziqishini oshiradigan o'ziga xos yangi turdagi obyektlarni yaratish, ularni sayyohlik yo'nalishlari tarkibiga kiritish zarurati mavjud.



## QADRIYATLAR

### Boshlanishi 1-betda

Nonning azizligini ko'p ta'rifiylaymiz, ammo non yopiladigan tandir va uni yasaydigan tandirpaz ustalar haqida ko'pam o'ylab ko'rmaymiz. Bugungi maqolamiz vobkentlik tandir ustalari haqida.

Buxoro viloyatining Vobkent tumani sayyohlik salohiyati yuqori hududlardir. Bu go'sha Buxoro shahridan 20 kilometr uzoqlikda, xalqaro magistral yo'li bo'yida joylashgan.

Tuman g'ilamdo'zlari, miskar-kandakorlari, so'zanado'z-kashlado'zlari, qandolatchi-holvapazlari, ganchkor, duradgor, usta naqshinkorlari, kosib va kulollari bilan dong taratgan. Shu bilan birga, vohada asrlar mobaynida shakllanib kelgan kulollik san'ati, tandirsozlik alohida o'rin

tutadi. Bugungi kunda ham tandir xalqimiz tarixining, madaniyatining bir qismi sifatida e'zozlanadi.

Tuman mahallalaridan biri Kulolchi deb nomlanadi. Mahalladagi deyarli har bir xonadonda kulol ustalar yashaydi. Ota meros kasbni davom ettirib kelayotgan Shavkat Fatullayev ham to'rtinchi avlod kulollar oilasining kenja vakili.

Hozir yiliga yuzlab tandir yasayotgan usta Shavkat Fatullayev nafaqat mahallaning, balki viloyatning eng zo'r tandirpazlaridan. — Har qaysi kasb-korning o'ziga yarascha zahmati bo'ladi. Esimni tanibimanki, shu hunar ortidan ro'zg'orimni tebratib, orzu-havasimizni ko'rib kelyapmiz, — deydi Shavkat Fatullayev. — Bobom rahmatli "Halol mehnatga nima yetsin, mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", degan maqolni



## TADBIKORNING TOPGANIDA BARAKA BO'LADI

tandir yasayotib qayta-qayta takrorlardir. Endi o'ylab ko'rsam, dono o'g'it bejiz aytilmagan ekan. Bir qaraganda, bu ba'zilar uchun juda oddiy va oson ko'rinadi. Ha, endi loyni olib, yaxshilab tepkilab, tandir yasayerish mumkin-da, deguvchilar ham ko'p. Ammo tandir yasash alohida bir san'at. Buning uchun sho'rflanmagan, alohida mineralarga ega shirali gil tuproq kerak bo'ladi. Tuprog'imiz sho'r bo'lgani uchun ham loyga alohida ishlav beramiz.

Ustaning ta'kidlashicha, bitta tandirni yasash uchun 6-8 soat vaqt ketadi. So'ng uni soyada saqlash, oftobda quritish uchun 3-4 kun kerak. Kulol bir dona katta tandir yasash uchun 200 kilogramm gil tuproqqa obdon ishlav beradi.

Bir maromda borayotgan tandirsozlik ishidan usta har oy 6-7 million, yiliga esa 70 million so'm sof daromad topadi.

Ko'rinib turibdiki, ustaning oilasi tinch, dasturxonni to'kin, ro'zg'ori but. Halol mehnati, sof peshona teri evaziga el ichida obro'si ham baland. Ayni kunlarda ustaning va ikki shogirdining qo'lli qo'lga tegmaydi.

Fatullayevlar oilasi birgina tandirsozlik bilan cheklanib qolgan yo'q. Mehnatkash xonadon hovlisida zotdor qoramollar parvarishlanmoqda. Birgina nasldor sog'in sigirning o'zi kuniga 20 litr sut berayotgan bo'lsa, boqib go'shtga to'pshirilyotgan novvoslaridan ham yaxshigina daromad ko'radi.

Darhaqiqat, tadbirkorlik bilan ish ko'rayotgan inson borki, birovdan kam bo'layotgani yo'q. Intilib, izlanib, halol mehnat qilib, peshona teri orqali o'z ezgu maqsadlariga erishayotgan insonlarning uyida halovat, topganida esa baraka bo'ladi.

## MILLAT FIDOYLARI

# Erkin Vohidov

## QALAMI BILAN QALBI UYG'UN IJODKOR

Boshlanishi 1-betda

— Kelsinlar, qani, qizim, qovun-tarvuzdan tanlang!

— Bu oltinrang qovunlarning bemazasi bo'lmasa kerak, amaki, — dedim tabassum bilan. Suhbatimiz qizidi. Dehqon yoz ne'matlari ta'rifini keltirib charchamasdi. Hayratim unga yanada ilhom berayotgani shubhasiz. Gap orasida tug'ilgan joyimni so'radi oqsoqol.

— Oltiriqdanman, — dedim quvonib.

— Ey-ey, siz Erkin Vohidovning qishlog'idanmisiz?! Men shoirning asl muxlislaridanman. "Oltin devor"ni qayta-qayta o'qisam, dilim yayraydi. Sherati Jo'rayev "O'zbekim"ni boshlasa, urushda va Sibirda uvol bo'lgan jigarlarimni eslab, yuragimni bo'shataman.

Dehqon bilan uzoq suhbatlashdik. Daladan narini ko'rmagan, ketmon orqalab umri o'tgan bu tozadil insonning millat shoiri haqida bilganlarini, Erkin Vohidovning dostonlaridan keltirayotgan aytimlarini eshitib, xalqqa yaqin bo'lish, xalq shoiri emas, xalqning shoiri bo'lish aslida mana shu ekaniga iqtidorim mustahkamlandi.

Darhaqiqat, Erkin Vohidov qalami bilan qalbi uyg'un ijodkor edi. Inson zoti azaldan she'r-u qo'shiqdan dardiga malham, quvonchiga yo'ldosh izlaydi, ko'ngli so'zga qo'shilgan aytimlarni xirgoyi qiladi. Ustoz shoir ham har bir satri beixtiyor kuyga qo'shiladigan, aytari ko'ngilarni topib boradigan ana shunday tug'ma shoirlardan edi. Qalblarga ezgulik urug'ini qadaguvchi ijod ahlining ismi-sharifi oldiga "sevimli" so'zi urg'ulab qo'shilishi bejiz emas. Zero, xalqimiz o'zidan chiqqan, ko'ngliga oyna tutib, umidini ulg'aytiradiganlarini sevadi.

Xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovni bilmagan, uning qo'shiqqa aylangan misralarini yod olmagun o'zbek bolasi bo'lmasa kerak.

Shams — dil taftingdadir,  
Sayyoralar kaftingdadir,  
Keng jahon zabtingdadir,  
Bog'bon o'zing, posbon o'zing...

... Onazorning — zamin,  
Tanho yo'g'u boring — zamin,  
Xasta bemorning — zamin,  
O'g'on o'zing, darmon o'zing,

Bag'rida yotquchi — sen,  
Ne'matlarin totquchi sen,  
Tig' bo'lib botquchi — sen,  
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Erkin Vohidovning Vatan ardogi, yurt kamoli, inson tiynati, yashash mohiyati, muhabbat saodatiga bag'ishlangan ko'plab she'r-lari yoshlar madhiyasiga aylangan. Shoir misralarida hayotsevar, olovli qalb egasining o'ziga xos qo'shiqlari jaranglayotganday bo'ladi.

Yurtimizning Oltiriq go'shasi faqat uzum, turp, bodring yetishtirib, dunyo bozorlarini egallashdagina emas, millatning adabiy oltin fondini zabardast adiblar bilan boyitishda ham yetakchilardan. Bu mo'tabar tuproqqa aziz bo'lganlar kamida shoirga aylanadi. Erkin Vohidov ana o'sha Oltiriq atalmish firdavsdan dunyoga kelgan. Shuning

Intilar borliqni inson  
Barkamol etmoq uchun,  
Ne ajab, insonni borliq  
Barkamol etgan emas,

deydi shoir she'r-laridan birida. Bu satrlar dilingizni topmay qo'ymaydi. Beixtiyor ko'ngildagi ko'ch-ko'roningiz bilan she'r-ga ko'chasiz. So'zning qudrati, adabiyotning mo'jizasi ana shunda emasmi?!

Ijod hamma davrda ham o'z peshqadamlari, quyma talantlarini yuzaga chiqargan. Bugun kitobxonning adabiy didi, talabi, she'riyatdan izlagani kechagidek emas. Iste'dodlarga nisbatan kitoblar behisob davrda yaxshi she'rni ko'zingga surting keladi. "Inson qasidasi" yoki "O'n sakkizga kirmagan kim bor" kabi she'r-larni aytib, ko'ngling



uchun uning ijodida bag'rikenglik, mardlik, ulug'lik zalvorini jo'sh urib turadi.

Fursating yetmaydi doim,  
Hech qachon yetgan emas.  
Mehnatning bitmaydi doim,  
Hech qachon bitgan emas.

Chun zamondek bepoyondir  
Ko'ksing ichra orzu,  
Fursat-u orzuni quvlab  
Hech kishi yetgan emas.

ravshan tortadi. Tanamizdagi dardimiz haqida shifokorlar bosh qotirsinu, ko'ngil malhami, qalb halovati boshqa narsada endi. Faqat xudo bergan qalamgina o'zing bilan o'zingni yuzma-yuz qilib, ilkingni to'qlaydi.

Ustoz "Shoir har qancha kuchli, o'ziga xos bo'lmasin, bir ohangda, bir uslubda yozaversa, o'z-o'zini takrorlab qo'yishi mumkin...", degan edi "Qirg' yosh yuki" maqolasida. Chindan ham, Erkin Vohidov faqat she'r-lar, hajviyalar yozgan shoir



sifatida emas, balki mudrab qolgan aruz vaznini o'ziga xos ovozi, iste'dodi bilan qayta uyg'otgan g'azal ustasi sifatida ham adabiyot bo'stonida chuqur iz qoldirdi. G'azalga samimiyatni yanada uyg'un etdi. Shuning uchun ham uning g'azallari sodda va ravon, qo'shiqdek tildan dilga oson ko'chadi.

"Davrlar keladiki, ijod ahlining ijtimoiy faolligi uning yozganlaridan ko'ra, muhim hisoblanadi", degan edi ulug'larimiz. Har bir davrning shiddati kishi yelkasiga ana shunday ikki hissa fidoyilik yukini ortadi. Erkin Vohidov bu sharafli burchga sidqidildan yondashdi. U yozgan kitoblari odamlarga qachon yetib borishi, e'tirof etilishini bir burchakda kutib o'tirmadi. Aksincha, xalq ichiga kirib, uning orzulari, qiyinchiliklarini birga kuyladi. Siyosat, ijtimoiy hayot va odamlar o'rnatilgan adabiyot atalmish muqaddas va ulug' ko'priki yanada mustahkamlashga hissa qo'shdi. Siyosat yo'nalishida faoliyat yuritir chog'i ko'p ijodkorlar qalamidan fayz, ijodidan samimiyat ketganini ko'rdik. Lekin Erkin Vohidov qancha balandlamasin, ildizlari, o'zligi,

adabiyotga so'nmas sadoqati bilan birga yuksaldi.

2018-yilda Marg'ilon shahrida Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi barpo etildi. Bugun ijod maktabida 160 dan ortiq yosh iste'dod sohibi ta'lim va ijod sirlarini o'rganmoqda. O'quvchilar jahon andozalariga mos sinfxonalarda tajribali, ijodkor ustozlardan ta'lim-tarbiya olmoqda. O'quvchilarning darsdan keyingi vaqtini unumli va sermazmun o'tkazish maqsadida ijod maktabida "Tasviriy va raqamli san'at", "Kompyuter grafikasi", "Audiovizual asarlarni yaratish va qayta ishlash", "Veb dizayn", "Teleradijurnalistika", "Drama" kabi zamonaviy to'garaklar faoliyat ko'rsatmoqda. Maktabda o'quvchilar ijodiy qobiliyatini namoyish etishi uchun "O'zbekim" radiosi, "O'zbekim" oynomasi, "O'zbekim" ko'rsatuvi va matbuot xizmati bo'limi tashkil etilgan. Bundan tashqari, ijod maktabida "Oltin devor" drama to'garagi, "Chashma" adabiy to'garagi, "Badiiy tarjima" to'garagi faoliyati yo'lga qo'yilgan. To'garaklarga O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari rahbarlik qilmoqda.

Shuningdek, ijodkor kamol topishida adabiy muhitning o'ziga muhim ekanini his etgan holda, reja asosida har oyda bir marta tanliq adabiyot ustazodalarini ishtirokida mahorat darslari tashkil etiladi.

Faxr bilan aytgim kelgani, 2019-2023-yillar davomida Yozuvchilar Bahodir Iso "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi" unvoni bilan, maktab o'qituvchilari Munira Qo'qonova "Shuhrat" medali, Davlatjon Karimov "Mard o'g'lon" davlat mukofoti, 11-sinf o'quvchisi Nilufar Ergasheva "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi. Maktab o'quvchilarining o'nlab kitoblari, to'plamlari chop etilib, ustoz ijodkorlar tomonidan e'tirof etilmoqda. Qolaversa, ilm toliblarining yurtimiz va xalqaro miqyosda erishayotgan yutuqlarining ham salmog'i baland.

Adabiyot xalqning yuragidir. U insonni ezguliklarga, yaxshiliklarga safarbar etadi. Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida o'zbek adabiyoti rivojiga ustoz adib kabi munosib hissa qo'shadigan ilmi va ma'naviyati barkamol yoshlar yetishib chiqishidan umidvordim.

Trikkhiliq tuproqdan-u, qalb fasohati osmon bo'lgan dehqon amaki bilan dildan suhbat quirdik. Ketar chog'im dehqon hafsala bilan tilyorlar qovun-tarvuzning saralarini mashinaga yukladi. Pul bersam, olgani unamadi.

— Qo'ysangiz-chi, qizim, axir siz sevimli shoirim Erkin Vohidovning qishlog'idan ekansiz. Biz tomonga yo'lingiz tushsa, albatta, yana keling. Bu polizdagi qovun-tarvuzlar sizga bepul, — dedi tabassum bilan.

Yo'l bo'yi ko'nglimdan ajib tuyg'ular o'tdi. Qalam tutganlarning hammasi ham qalamga, qalbg'a sadoqat bilan tura olmaydi. Yozilganlarning hammasi ham yillar o'tsa-da, odamlarning diliga, tiliga jo bo'lavermaydi. Zero, umri bo'qiy asarlarni yaratmoq ulug'lar ishi. Ezgulikka xizmat qiladigan adabiyot bor ekan, insoniyat qalbidagi ma'naviyat, adabiyot daryosi mavjlanib, undan sibqorganlarning bu dunyodagi rutbasi va fazli yuksalib boraveradi.

**Dilshoda ERGASHEVA,**  
**O'zbekiston Yozuvchilar**  
**uyushmasi a'zosi**

### QO'LYOZMALAR — O'CHMAS BITIKLAR

Yaqinda AQSHning Indiana universiteti professori Akram Habibullayevning "Ajodlar merosi: AQSHdagi qo'lyozmalar" kitobi nashr etildi. Ma'lum bo'lishicha, AQSH kutubxona va muzeylarida yurtimizda yetishgan allomalarimiz asarlari qo'lyozmalari anchani tashkil qiladi. Xususan, Ahmad Farg'oniy, Imom Buxoriy, Muhammad Iso Termiziy kabi jami o'ttiz uch muallif asarlarining 556 ta qo'lyozmasi mavjud.

Yirik kutubxonalar ularda mavjud qo'lyozmalarni tavsifga olib, ular to'g'risidagi ma'lumot va bazilarini raqamlashtirib, internetda ochiq foydalanishga qo'ygan. "Musulmon olami qo'lyozmalari" deb nomlangan loyihada 630 qo'lyozma tavsifi katalogga olingan. Chop etilgan kitobda, asosan, Prinston universitetidan 278 ta, Yel universitetidan 140 ta, Michigan universitetidan 51 ta va Vashingtondagi Kongress kutubxonasi 27 ta qo'lyozma to'g'risida ma'lumot keltirilgan.

Kitobda Imom Buxoriyning "Jome' as-Sahih", Burhoniddin Marg'oniyning

## Sehrlı diyor

# KUTUBXONALARIDAGI XAZINA

## YOXUD AQSHDA AJDODLARIMIZ YARATGAN 556 TA QO'LYOZMA MAVJUD

"Al-Hidoya", Sa'duddin Taftazoniyning "Sharhi Talxis al-Miftoh", Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Mahmud Zamaxshariyning "Al-Kashshof" kabi mashhur asarlari qo'lyozmalari ham mavjud.

Eng qadimgi qo'lyozma Ibn Sinoning 1100-1150-yillar orasida ko'chirilgan "al-Qonun fit-tib" asarining "A'zolarning mizojlari" nomli bo'limidir. Tavsifga olingan qo'lyozmalar ichida yaratilgan vaqti ko'rsatilganlari alohida ilmiy qiymatga ega. Ular orasida Zamaxshariyning "Al-Mufasssal" asari qo'lyozmasi bo'lib, u hijriy olti yuz yettinchi yil jumod ul avval oyining oxirgi kuni, milodiy 1210-yil 19-noyabrda ko'chirilgan. O'n uchta qo'lyozma XIII asrda, o'ttiz to'rtta qo'lyozma XIV asrda, ellik uchta XV asrda, o'ttiz uchta XVI asrga oid bo'lib, qolganlari keyingi asrlarda yaratilgan.

Ayrim qo'lyozmalar yaratilgan joyi ham ko'rsatilgan, ular orasida

Burxoniddin Marg'oniyning Buxoro shahrida hijriy olti yuz ellik rajab oyining o'rtalarida, milodiy

1258-yil iyulida ko'chirilgan "Al-Hidoya" asari bor. Ikkinchi qo'lyozma Zamaxshariyning "Al-Kashshof" asaridir. Samarqandda ko'chirilgan bir qo'lyozma Mirzo Ulug'bek madrasasida hijriy sakkiz yuz o'ttiz sakkizinchi, milodiy 1434-1435-yillarda yaratilgan.

Prinston universitetida buyuk tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafaroma" asarining 1467-1468-yili, muallif vafotidan 33 yil keyin Sherati ismi tattot tomonidan ko'chirilgan nusxasi va Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan o'n ikkita miniatyura bor. Kitob xotimasida ushbu noyob qo'lyozma Mir Jamoluddin Husayn degan shaxs tomonidan Boburning nabirasi Jaloliddin Muhammad Akbarga taqdim qilingani haqidagi yozuv mavjud. Bu noyob qo'lyozma matni hali



olimlarimiz tomonidan yetarlicha o'rganilgani yo'q, garchi miniatyuralari ko'p bora nashr qilingan bo'lsa-da.



Ma'lumotlarga ko'ra, AQSHning Baltimor shahridagi Valter muzeyida mashhur "Boburnoma" asarining

Boburning chevarasi Abdurahim Xoni Xonon tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasiga taalluqli 35 varaqli qo'lyozma mavjud. Varaqlar keyinchalik alohida muqovaga olingan. Ularning yigirma yetti varag'idagi o'ttiz sahifada qirg' bitta rasmlar mavjud. Bular Britaniya muzeyida saqlanayotgan, Akbar uchun yaratilgan rasmlar qo'lyozmaga o'xshaydi. Farqi shuki, Britaniya muzeyidagi qo'lyozmada rasmlar tagiga ularni yaratgan rassomlar nomlari bitilgan.

Olimning aniqlashicha, AQSHning eng nufuzli kutubxonalarida allomalarimiz tomonidan yaratilgan besh yuz ellik oltita qo'lyozma manba mavjud. Bu boy va bebaho ma'naviy meros ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan munosib hissasi sifatida baholanadi.

Indiana universiteti professori Akram Habibullayevning izlanishlaridan xulosa qilish mumkinki, yurtimiz hududida yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz merosi butun jahon muzey, kutubxona va shaxsiy majmualar, jumladan, Amerikaning nufuzli kutubxonalarida mavjud bo'lib, ularni izlab topish, aniqlash va xalqimiz ma'naviy mulkiga aylantirish olimlar va tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalar sirasidan.

**Abdumajid MADRAIMOV,**  
**O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan**  
**madaniyat xodimi, tarix fanlari**  
**doktori, professor**

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока"  
gazetaları tahririyyati" DUK

MUASSIS:  
**O'zbekiston Respublikasi**  
**Vazirlar Mahkamasi**

Bosh muharrir:  
**Salim DONIYOROV**

Tahririyyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
**Nashr indeksi** — 236. **Buyurtma** G-646.  
41011 nusxada bosildi.

**Hajmi** — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov  
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz: 100029,  
Toshkent shahri,  
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:15